

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish  
(tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent-2023



**ISHLAB CHIQILGAN:**

- Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.
- «Ximavtomatika» MChJ QK.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil  
«7» 08 dagi 394 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r

1. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliishing umumiy tavsifi .....</i>	bet 4
1.1. Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi .....</i>	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</i>	4
1.2.1. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari .....</i>	4
1.2.2. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....</i>	4
1.2.3. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining turlari .....</i>	5
1.2.4. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari .....</i>	5
2. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi bo'yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyaliga qo'yiladigan talablar .....</i>	7
2.1. Umumi kompetensiylar .....	7
2.2. Kasbiy kompetensiylar .....	8
2.3. Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....	9
2.3.1. Kvalifikatsiya .....	9
2.3.2. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'naliishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar .....</i>	10
2.3.3. <i>60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'naliishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi .....</i>	10
Bibliografik ma'lumotlar .....	11
Kelishuv varag'i .....	12

**1. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining tavsifi**

**60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

**1.1. Qo‘llanish sohasi**

**1.1.1. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talabining qo‘llanilishi.**

Malaka talablari 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalarini uchun talablar majmuini ifodalaydi.

**1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va fan dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

- oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

- oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

**1.2. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

**1.2.1. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)** ta’lim yo‘nalishi – fan va texnikaning muhandislik ishi sohasidagi ta’lim yo‘nalishi bo‘lib, u ishlab chiqarish tarmoqlaridagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish, ularning boshqarish obyektlari va tizimlarini loyihalash, ishga tushirish, texnik xizmat ko‘rsatish va ulardan foydalanish jarayonlarini ta’minalashga yo‘naltirilgan nazorat vositalari majmualari, texnologik obyektlarni rostlash va boshqarish tizimlarini, shuningdek, texnologik obyektlarni samarali boshqarish uchun mo‘ljallangan nazorat va boshqarish tamoyillari bilan bog‘liq kompleks masalalar majmuini qamrab oladi.

**1.2.2. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- kimyo, neftkimyo, oziq-ovqat, energetika, transport, mashinasozlik, metallurgiya va tog‘-kon sanoati, to‘qimachilik va yengil sanoat, qishloq va suv xo‘jaligi sanoatlari ishlab chiqarishlari va texnologik jarayonlari;
- texnik tizimlar, yuqori unumdonorlikka ega texnologik jarayonlar, apparatlar va jihozlar;
- texnologik jarayonlar va ularni nazorat qilish, nazorat-o‘lchash asboblari va avtomatika vositalari;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni rostlash va boshqarish tizimlari;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridan foydalanish, ularni sozlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish usullari va vositalari, shuningdek nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarining loyiha, ilmiy-ishlab chiqarish faoliyatini texnik ta‘minlash vositalari;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarishning raqobatbardoshligini zamонави boshqarish usullari va vositalarini qo‘llash orqali oshirish va bu sohani rivojlantirish jarayonlari;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta‘minlash vositalari.

*60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat bitiruvchilari fan va texnika sohasidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tamomlagandan so‘ng, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarish vasitalari va tizimlaridan foydalanish, ularni sozlash, ularga texnik xizmat ko‘rsatish, texnik ta‘mirlash korxonalarida faoliyat olib borish, nazorat, rostlash va boshqarish tizimlarini loyihalash tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish hamda pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tganidan so‘ng professional ta’lim muassasalarida nazorat-o‘lchov asboblari va avtomatika sohasiga oid fanlardan zamонави pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish huquqiga ega bo‘ladi.

#### **1.2.3. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- muhandislik-ishlab chiqarish va loyiha-konstrukturlik;
- foydalanish va servis xizmati ko‘rsatish;
- ishlab chiqarish-boshqaruv;
- yig‘ish-sozlash;
- tashkiliy-boshqaruv;
- ilmiy-tadqiqot;
- tadbirkorlik.

#### **1.2.4. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.**

*60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha)* ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

##### **Muhandislik-ishlab chiqarish va loyiha-konstrukturlik faoliyatlarida:**

- ishlab chiqarish sohasidagi texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari loyihalarni ishlab chiqish;
- bajarilayotgan tajriba va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilish;
- loyihami va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

- iqtisodiyotning turli sohalaridagi umumsanoat va maxsus maqsadli nazorat, rostlash va boshqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlari apparat-dasturiy majmualari arxitekturasini loyihalashtirish;
- turli tabiatli texnologik obyektlarning parametrlarini nazorat qilish, rostlash va boshqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlari uchun apparatli-dasturiy vositalarni tanlash va yaratish;
- jarayonlarning borishini nazorat qilish, rostlash va boshqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan tizimlarini funksional, mantiqiy va texnikaviy tashkillashtirishni ishlab chiqish, ularni loyihalashning zamonaviy usullari, vositalari va texnologiyalari asosida texnikaviy, algoritmik va dasturiy ta'minotini ishlab chiqsa olish.

#### **Foydalanish va servis xizmati ko'rsatish faoliyatida:**

- avtomatika va nazorat-o'lchov asboblari va vositalardan foydalanish, ta'mirlash va ularga texnik xizmat ko'rsatishni tashkil etish;
- texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlaridagi texnik vositalarga texnik xizmat ko'rsatish, namunaviy texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va qo'llash;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasida ishlatiladigan apparatlarni sinash, ularning ishlashiga tashxis qo'yish va kamchiliklarini bartaraf etish;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish sohasida ishlatiladigan apparatlarning ishchi jarayonlari modellarini ishlab chiqish va tahlil qilishda hisoblash vositalardan foydalana bilish;
- inson sog'ligini va uning ishchanlik qobiliyatini saqlash bo'yicha hamda hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash bo'yicha metodika va tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish.

#### **Ishlab chiqarish-boshqaruv faoliyatida:**

- nazorat-o'lchov asboblari va avtomatika, texnologik jarayonlarning avtomatlash-tirilgan boshqarish tizimlari, texnologik jarayonlarni boshqarishning axborot-kommunikatsiya tizimlari sexlarida usta, katta usta, sex dispetcheri, metrolog, avtomatlashtirish tizimlariga xizmat ko'rsatuvchi operator, operator-dispetcher vazifalarini bajara olish;
- namunaviy avtomatlashtirilgan texnologik jarayonlarni ishlab chiqish va ularni qo'llash;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash qobiliyatiga ega bo'lish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarining instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya etish.

#### **Yig'ish-sozlash faoliyatida:**

- texnologik jarayonlarning nazorat va rostlash konturlarini ishlab chiqish va ishga tushirish bo'yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish;
- zamonaviy nazorat-o'lhash asboblarini yig'ish va sozlash ishlarini samarali bajara olish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tadbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;
- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruva qarorini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish zvenosi ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasiga, yong‘inga, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish.

**Ilmiy - tadqiqot faoliyatida:**

- ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishda nazorat-o‘lhash asboblarini sinash, ulardan foydalanish hamda avtomatlashtirishning texnik vositalari, tizimlari, jarayonlari, jihozlari, shuningdek materiallarni standartlashtirish bilan bog‘liq tadbirlarda qatnashish;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish tizimlarini tadqiq qilishda namunaviy metodikalar va texnik vositalarni qo‘llay olish;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma’lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o‘rganish;
- ilmiy tadqiqotlarni o‘tkazish va ishlanmalarni ishlab chiqishda qatnashish;
- mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy texnik ma’lumotlarni yig‘ish, ishlov berish, tahlil qilish va tizimlashtirish;
- tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni tadbiq etishda qatnashish.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

- yangi texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ularni avtomatlashtirish boshqarish tizimlarini yaratish uchun biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- avtomatlashtirish vositalari, nazorat-o‘lhash asboblari va dasturiy mahsulotlarni sotish, o‘rnatish va sozlash faoliyati bilan shug‘illanuvchi davlat va nodavlat firma va tashkilotlarda menejerlik faoliyatini yuritish;
- ishlab chiqarishni tashkil etish va yuritish.

**2. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr larning kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar**

**2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- mantiqiy fikr lashlarni rivojlanтирish, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy-ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilishi, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to‘g‘risida tassavvurga ega bo‘lish.

**2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- namunaviy va nostandart texnologik jarayonlarni va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlarini, ularning elementlari va qurilmalarini, nazorat-o‘lhash asboblarini, qismlari va detallarini loyihalash;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiq etish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- texnologik jarayonar va ishlab chiqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari, nazorat va rostlash konturlari, axborot-boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va ularni qo‘llash;
- texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni boshqarishning intellektual tizimlari ishlashini o‘zlashtirish;
- texnologik jarayonar va ishlab chiqarishning avtomatik va avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari, texnologik jihozlarni tayyorlashda texnik hujjatlar (ishlarni bajarish grafiklari, yo‘riqnomalar, rejalar, smetalar, material va jihozlarga byurtmalar)ni ishlab chiqish;
- texnologik jarayonar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirilgan boshqarishda usta, katta usta, sex operatori, operator-despetcher, metrolog, sistema-texnik faoliyatlarini olib borish;
- ilmiy va amaliy faoliyatda avtomatlashtirilgan tizimlarning instrumental vositalari va muhitlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish;
- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- texnologik jarayonar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish va boshqarishda ishlab chiqarishdagi texnologik jihozlarni, jumladan, avtomatlashtirilgan raqamli-dasturiy boshqariladigan, moslanuvchan ishlab chiqarish va nostandard jihozlar va boshqalarni montaj qilish hamda sozlash bo‘yicha ishlarni rejalashtirish va bajarish qobiliyatlariga ega bo‘lishi;
- davlat va munitsipal boshqaruv organlari va tashkilotlari faoliyatini ishlab chiqarish muhitiga ta’sirini baholash, ishlab chiqarishda o‘ziga xos xatarlarni aniqlash va tahlil qilish, shuningdek, ishlab chiqarish tovarlarni iste’molchilari xatti-harakatlarini tahlil qilish va korxonalarning ishlab chiqarish asoslari, ishlab chiqarish tuzilmalari va sohaning raqobat muhitini bilishga asoslangan talabni shakllantirish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq ishlab chiqarish vazifalariga moslashtirish orqali ishlab chiqarishni tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish korxonasining ichki hujjat ayylanish tizimining ishlashi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni tahlil qilish, turli ko‘rsatkichlar bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish va tashkiliy loyihihalar ishtirokchilariga axborot ta’minotini yaratish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish korxonasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalarni amalga oshirishda (korxona, davlat yoki mahalliy boshqaruv idorasi) tashqi aloqalarni kengaytirish va tajriba almashish uchun zarur ma’lumot to‘plash tizimlaridan foydalangan holda ishlab chiqaruvchi sheriklar bilan munosabatlarni tashkil etish va qo‘llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarish jarayonlarini modellashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini tashkilotlarning amaliy faoliyatida qayta tashkil etish usullaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish siyosati va tashkilotning ishlab chiqarish hisobotlarini shakllantirishda ishlab chiqarish hisobining asosiy prinsiplari va standartlarini, ishlab chiqarish hisobi ma’lumotlari asosida xarajatlarni boshqarish va qarorlarni qabul qilish ko‘nikmalarini;
- ishlab chiqarish qarorlarini qabul qilishda, shu jumladan, innovatsion texnologiyalar to‘g‘risida qaror qabul qilishda o‘ziga xos xatarlarni tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi;
- ishlab chiqarish korxonalari va universitet (institut) larning rolini hisobga olgan holda innovatsion loyihalarni baholash, rejalashtirish va bashoratlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi;
- konstrukturlik byurosi, yig‘ish, sinash ishlab chiqarish sexi faoliyatini sifatli boshqarish;
- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.

### **2.3. Umumiylar va kasbiy kompetensiyalarini egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar **majburiy** va **tanlov** fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

#### **1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyiligi bo'yicha):**

➤ Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'limgan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

#### **2. Tanlov fanlari.**

Tanlov fanlari ta'lif oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlari jamlamasiga uchtadan kam bo'limgan o'rmini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiylarini soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

➤ Chuqur ixtisoslashuvli tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80 % dan kam bo'limgan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagen ta'lif yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20 % dan ko'p bo'limgan qismi taqsimlanishi mumkin.

#### **Malakaviy amaliyot.**

Bakalavrular tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

2, 3-bosqichlarda malakaviy amaliyot – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lif yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

#### **2.3.1. Kvalifikatsiya:** muhandis-sistemotexnik.

mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishini tayyorlash uchun ma'lumot toplash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

### 2.3.1. Kvalifikatsiya: muhandis-sistemotexnik.

**2.3.2. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5010	167
Tanlov fanlari	1620	54
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

**2.3.3. 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>5010</b>	<b>167</b>	
1.01	O'RT11104	O'zbek (rus) tili	120	4	1
1.02	DIN11204	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	KIM11204	Kimyo	120	4	2
1.04	XT12308	Xorijiy til 1,2	240	8	2,3
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM11315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O'EYT11104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.08	MKG11104	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	1
1.09	MS12404	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	4
1.10	SIM14804	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	8
1.11	FAL13604	Falsafa	120	4	6
1.12	EKO13504	Ekologiya	120	4	5
1.13	MEX12305	Nazariy mexanika	150	5	3
1.14	ELTEX12305	Elektrotexnika va elektronika	150	5	3
1.15	KT12405	Kompyuter tizimlari va tarmoqlari	150	5	4
1.16	STO'A12410	Sohaning texnologik o'lchashlari va asboblari	300	10	3,4
1.17	ABN12410	Avtomatik boshqarish nazariyasi	300	10	3,4
1.18	TJQ12509	Texnologik jarayonlar va qurilmalar (tarmoqlar bo'yicha)	270	9	4,5
1.19	TJMOA13609	Texnologik jarayonlarni modellashtirish va optimallashtirish asoslari	270	9	5,6
1.20	ATLO'S14811	Avtomatlashtirish tizimlarini loyihalash, o'rnatish va sozlash	330	11	7,8
1.21	TJA14811	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish	330	11	7,8
1.22	BTEQ14810	Boshqarish tizimlarining elementlari va qurilmalari	300	10	7,8
1.23	ATDI14804	Avtomatlashtirish tizimlarining diagnostikasi va ishonchliligi	120	4	8
1.24	YK11105	Yo'nalishga kirish	150	5	1
1.25	DA11104	Dasturlash asoslari	120	4	1
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1620</b>	<b>54</b>	
2.00		Tanlov fanlari (10 ta fan)	1620	54	2,4,5,6,7
		<b>Jami</b>	<b>6630</b>	<b>221</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	<b>420</b>	<b>14</b>	<b>4, 6, 8</b>
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>	<b>150</b>	<b>5</b>	<b>8</b>
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliy ta'lim, o'quv jarayoni, loyiha-konstrukturlik, ishlab chiqarish-tashkiliy, xizmat ko'rsatish va servis, malakaviy amaliyot, bitiruv malakaviy ish, sifatni baholash va nazorati, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, kredit, nazorat-o'lchash asboblari va avtomatika, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqarish tizimlari, operator-dispatcher, operator, metrolog, chilangar, sex ustasi, sex boshlig'i.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lif muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari**  
**ISHLAB CHIQILGAN:**



**Islom Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika universiteti**

Rektor \_\_\_\_\_ prof. S.M. Turabjanov

2023 yil « 03 » 02

M.O.



Bosh direktor \_\_\_\_\_ prof. F.T. Adilov

2023 yil « 03 » 07

M.O.

**KELISHILGAN:**

Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'lifni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Toshkent kimyo-texnologiya  
instituti

Direktor \_\_\_\_\_ Sh.Yakubov

M.O.

2023 yil « 06 » 02

Rektor \_\_\_\_\_ B.Sh.Usmonov

M.O.

2023 yil « 06 » 07

**“O’ZLITINEFTGAZ” AJ**  
Boshqaruv Raisi

U.S.Nazarov



2023 yil « 06 » 07

M.O.

**“MAXAM-CHIRCHIQ” AJ**  
Boshqaruv Raisi

H.A.Saydaxmedov



2023 yil « 06 » 07

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish  
(tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining ishlab  
chiquvchilar, turdosh oliv ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar iste’molchilari o‘rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“2” 02 2023 yil

Biz quyida imzo chekvchilar – “Ximavtomatika” MChJ QK bosh direktori prof. F.T.Adilov, Toshkent kimyo-texnologiya instituti rektori prof. B.Sh.Usmonov, Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasini mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish  
(kimyo, neftkimyo va oziq-ovqat sanoati).**

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-son, 2017-yil 27-iyuldagagi “Oliy ma’lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirotini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-son, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirotini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-son Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-iyundagi “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**“Ximavtomatika” MChJ QK  
bosh direktori, professor**



**F.T. Adilov**

**Toshkent kimyo-texnologiya instituti  
rektori, professor**



**B.Sh. Usmonov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti rektori, professor**



**S.M. Turabdjanov**

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida  
ishlab chiqilgan 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi  
bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darjasи va  
zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka  
talablari va o‘quv rejasiga**

**TAQRIZ**

“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijro etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlap sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg‘or jahon darajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejası O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023-yil 9-iyundagi “Oliy ta’limning me’yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejası kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejası xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavr larning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda

zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon ta'lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Toshkent kimyo-tehnologiya  
instituti rektori, professor

B.Sh. Usmonov



**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab  
chiqilgan 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni  
avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha  
oliy ma’lumotli bakalavrular tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy  
bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va  
o‘quv rejasiga**  
**TA Q R I Z**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018-yil 3-apreldagi 5002сонли topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtiropini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori hamda 2019-yil 22-avgustdagи PQ-4422 “Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 10-iyuldagи PQ-4779-sonli “Iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va mavjud resurslarni jalg etish orqali iqtisodiyot tarmoqlarining yoqilg‘i-energetika mahsulotlariga qaramligini kamaytirishga doir qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasidagi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilarda churup bilim, mustaqil fikrlash, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilalar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari

bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyatda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta'minlangan bo'lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste'molchilari bo'lган korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 60711400 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrular tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

"Maxam-Chirchiq" AJ Boshqaruv Raisi



H.A.Saydaxmedov